

**“Qadring baland bo‘lsin, ona tilim” Respublika tanlovining
yozuvchi va shoirlar o‘rtasida “O‘zbek tilining qudrati va go‘zalligini tarannum
etgan eng yaxshi badiiy asar” yo‘nalishini tashkil etish
va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 31 yilligi, “Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilinganligining 33 yilligiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan **“Qadring baland bo‘lsin, ona tilim”** Respublika tanlovining O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zolari, yozuvchi-shoirlar, iqtidorli yosh ijodkorlar tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi qadri, o‘rni va mavqeyini oshirish, o‘zbek tilining barcha adabiy jabhalarda faol qo‘llanishini ta‘minlashga hamda badiiy-ijodiy loyihalarni rag‘batlantirishga qaratilgan **“O‘zbek tilining qudrati va go‘zalligini tarannum etgan eng yaxshi badiiy asar”** yo‘nalishi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi;

1.2. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020-yil 10-fevraldagi 73-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida tashkil etiladi;

1.3. Tanlovda o‘zbek tilining qudratini, jozibasini yuksak darajada tarannum etayotgan, o‘quvchilarda ona tilimizga bo‘lgan mehr muhabbatni mustahkamlashga, unutilib borilayotgan so‘zlarga yangi hayot baxsh etishga xizmat qilayotgan mahoratli yozuvchi va shoirlar qatnashadi;

1.4. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash, tashkiliy chora-tadbirlarini moliyalashtirish bilan bog‘liq barcha masalalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan amalga oshiriladi. Tanlovga doir chora-tadbirlarning umumiy ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ma‘naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) tomonidan muvofiqlashtiriladi.

II. Tanlovning maqsadi

2.1. Tanlovning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

-o‘zbek tili sofligini ta‘minlash, tilni tabiiy boyitib borish va aholi nutq madaniyatini oshirish;

-o‘zbek tilining o‘rni va nufuzi, o‘tmishi va kelajagini badiiy asarlar orqali ko‘rsatish;

-o‘quvchilarda ona tilimizga bo‘lgan mehr-muhabbatni mustahkamlash, unutib borilayotgan so‘zlarga yangi hayot baxsh etish;

-yosh avlod qalbida o‘zbek adabiy tiliga so‘nmas samimiy hurmat-ehtirom tuyg‘ularini shakllantirish;

-badiiy asarlar orqali o‘zlikni anglatish, yurt qadri va sha‘nini ulug‘lashda o‘zbek adabiy tilining dunyo adabiy tillari bilan bir qatorda ekanligini singdirish;

-o‘zbek badiiy tilini o‘rganish va o‘rgatishni targ‘ib etish.

III. Tanlovda ishtirok etish tartibi

3.1. Tanlovda yozuvchi va shoirlar tanlovning rasmiy saytida e‘lon qilingan elektron manzil orqali adabiy-badiiy asarlarini elektron shaklda taqdim etish orqali ishtirok etadi;

3.2. Oldingi yillarda g‘olib bo‘lganlar tanlovda ishtirok etmaydi.

IV. Tashkiliy qo‘mitani tashkil etish tartibi

4.1. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha respublika tashkiliy qo‘mitasi tarkibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi;

4.2. Tashkiliy qo‘mita tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq barcha jarayonlarni boshqaradi;

4.3. Departament hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Tanlovning ijrochi tashkilotchilari hisoblanadi;

4.4. Respublika tashkiliy qo‘mitasi quyidagi huquqlarga ega:

-o‘z a‘zolaridan iborat tarkibda komissiya tuzish hamda tanlovga taqdim etilgan ishlarni o‘rganish;

-o‘rganish natijasida tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan asarlarning ushbu Nizomga muvofiqligi bo‘yicha tegishli qaror qabul qilish.

V. Tanlovning vazifalari

5.1. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

-yozuvchi va shoirlarning ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish va ularning ijtimoiy-ma‘naviy faolligini oshirish;

-o‘zbek tilining o‘rni va nufuzini oshirishga qaratilgan yuksak badiiy asarlar yaratishni rag‘batlantirish;

-yosh iste'dod sohiblarini izlab topish, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish va o'zbek adabiyotini yangi asarlar bilan boyitish;

-dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilishda o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalanish.

VI. Tanlov yo'nalishlari

6.1. Tanlovga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha adabiy asarlar qabul qilinadi:

-o'zbek adabiy tilining imkoniyatlari va jozibasini aks ettiradigan eng yaxshi badiiy asarlar (she'riy, nasriy);

-o'quvchilarda ona tilimizga bo'lgan mehr-muhabbatni mustahkamlashga, unutib borilayotgan so'zlarga yangi hayot baxsh etishga xizmat qiladigan asarlar (she'riy, nasriy, publitsistik);

-o'zbek tilining boshqa tillardan qolishmaydigan, go'zalligi va nufuzi, keng imkoniyatlarini yorqin namoyon etadigan eng yaxshi badiiy tarjimalar (she'riy, nasriy).

VII. Tanlov bosqichlari va muddatlari

7.1. Birinchi bosqich (1-iyuldan 1-sentabrgacha)da ishtirokchilar tanlovning rasmiy saytida e'lon qilingan elektron manzil orqali badiiy asarlarini taqdim etadi;

7.2. Ikkinchi bosqich (1-30-sentabrgacha)da taqdim etilgan badiiy asarlar ijrochi tomonidan shakllantirilgan Ekspertlar guruhi tomonidan o'rganiladi hamda baholash mezonlariga ko'ra eng yuqori ko'rsatkichga erishgan nomzodlar Respublika Hakamlar hay'atiga tavsiya etiladi;

7.3. Uchinchi bosqich (10-oktabrgacha)da Hakamlar hay'ati tomonidan tanlov g'oliblari aniqlanadi;

7.4. Tanlov har yili o'tkaziladi va g'oliblar 21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni arafasida e'lon qilinadi.

VIII. Asarlarni taqdim etish va baholash

8.1. Tanlov uchun asarlar rasmiy saytda e'lon qilingan elektron manzil orqali taqdim etiladi;

8.2. Tanlovga belgilangan mavzu va yo'nalishlarga mos keladigan **so'nggi bir yil ichida yaratilgan** (nashr etilgan/patentlangan) asarlar taqdim etilishi mumkin;

8.3. Elektron shaklda taqdim etilmagan asarlar tanlovda ishtirok etmaydi;

8.4. Asarlar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

-asar g'oyasi, tili va uslubining o'ziga xosligi;

-asarning badiiy qimmatini;

-badiiy tasavvurning mukammalligi;

-tanlov maqsadi va vazifasiga mosligi.

IX. Mualliflik huquqlari

9.1. Tanlovda ishtirok etayotgan asarlarda mualliflik huquqlari buzilganida ishni tanlovga taqdim etgan muallif (mualliflar jamoasi) javobgar hisoblanadi;

9.2. Tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan asarning muallifi ekanligini, ularda boshqa shaxslarning intellektual mulkka bo'lgan huquqiga dahl qilinmaganligini kafolatlaydi. Mazkur talab buzilganda, ishtirokchi tashkilotchilarga yetkazilgan barcha zarar hamda tashkilotchilarning o'z huquqlarini himoya qilishi uchun sarflangan xarajatlarini qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

9.3. Tanlovda ishtirok etayotgan asarlardan ommaviy ravishda foydalanish mualliflik huquqiga oid qonun hujjatlariga asosan amalga oshiriladi;

9.4. Tanlovda g'olib bo'lmagan ishtirokchilarning asarlariga rasmiy munosabat bildirilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;

9.5. Ishtirokchi asarini tanlovga taqdim etish orqali ushbu Nizomning barcha bandlariga o'z roziligini bildirgan hisoblanadi.

X. G'oliblarni aniqlash va taqdirlash

10.1. Tanlovning yakuniy bosqichiga taqdim etilgan asarlar orasidan Hakamlar hay'atida ovozga qo'yish yo'li bilan eng ko'p ovoz to'plagan uchta o'rin (1-, 2-, 3-o'rinlar) aniqlanadi;

10.2. Tanlov natijalari tanlovning rasmiy sayti hamda axborot hamkorlari hisoblangan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi;

10.3. Tanlov g'oliblari tashkilotchilarning maxsus sovg'alari bilan taqdirlanadi.

XI. Yakunlovchi qoidalar

11.1. Hakamlar hay'ati ushbu Nizomga muvofiq tanlovda ishtirok etayotgan ijodkorlar tomonidan taqdim etilgan asarlarning xolis ko'rib chiqilishi uchun bevosita mas'uldir.

11.2. G'oliblarga berilgan yutuqlar qiymati qonunchilikka asosan belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish obyekti deb hisoblanadi.

11.3. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgardir.